

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№3

2026
MART



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 127 sahifa.
2026-yil, mart

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

KORXONALARDA ICHKI AUDIT TIZIMINING BOSHQARUV QARORLARI QABUL QILISHDAGI O'RNI	24
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	
FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGI VA SOLIQ TUSHUMLARI DINAMIKASI: O'ZBEKISTON MISOLIDA ILMIY TAHLIL	30
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI KELITIRIB CHIQARUVCHI ASOSIY OMILLAR HAMDA IQTISODIYOTGA TA'SIRI	37
Toxtabayev Oybek Odilovich	
QISHLOQ XO'JALIGI OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV	42
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTON GLOBAL-IQTISODIY RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O'RNI	48
Kuvatova Oliya Sheraliyevna	
QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA ULARNI KAPITAL BOZORI INSTRUMENTLARI ORQALI MOLİYALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	54
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
IQTISODIY ISLOHOTLAR DAVRIDA TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI	61
Yangiboyev F.B.	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI ERTA ANIQLASH VA BOSHQARISHNING INTEGRATSIYALASHGAN RISK-INDEKS MODELİ	68
Kalandarov Abdulla Baxtiyorovich, Rajabov Shoxrux Suvon o'g'li	
RUX VA QO'RG'OSHINNI SELEKTIV AJRATIB OLISHNI KOMBINATSIYALASH TEXNOLOGIYASI VA NAZARIYASI.....	74
Eshonqulov Uchqun Xudaynazar o'g'li, Haqberdiyev Dilshod Qodir o'g'li	
UY-JOY QURILISHI HAJMINI UZOQ MUDDATLI PROGNOZLASHDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH	81
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
O'ZBEKISTONDA BOG'DORCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA IQLIM VA TABIIY OFATLAR NATIJASIDA YETKAZILDAN TALOFATLARNI DAVLAT TOMONIDAN KOMPENSATSIYA QILISH MEKANIZMI.....	85
Sattorov Orifjon Boymurodovich	
AHOLI MOLİYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH MEKANIZMLARI.....	90
Abdug'aniyev Uchqun Habibulla o'g'li	
O'ZBEKISTON QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA TENDENSIYALARI	96
Musaeva Aynura Abayxolievna	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF SOCIAL INFRASTRUCTURE TRANSFORMATION IN THE CONTEMPORARY ENVIRONMENT.....	104
Normurodov Khusan Eshmakmatovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING INVESTITSION FAOLLIGINI BAHOLASH YO'LLARI	108
Begamov S.X.	
DEBITORLIK QARZLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI	112
Normatova Gulmira Xayrullaevna	



SOLIQLARNI PROGNOZLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI.....	118
Ergashov Jamshid Ashurovich	



SOLIQLARNI PROGNOZLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI

Ergashov Jamshid Ashurovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Mustaqil tadqiqotchisi (PhD)

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot O'zbekistonda to'g'ri soliqlarni prognozlash metodologiyasini takomillashtirish amaliyotining hozirgi holatini tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda foyda solig'i, jismoniy shaxslar daromad solig'i hamda mol-mulk va yer soliqlari kabi asosiy to'g'ri soliqlar bo'yicha prognozashtirish jarayonlarining amaldagi mexanizmlari o'rganilgan. Statistik tahlil, taqqoslama baholash va iqtisodiy modellashtirish usullari asosida prognoz ko'rsatkichlari aniqligi va barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar baholangan. Shuningdek, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, soliq bazasining kengayishi hamda soliq ma'murchiligini raqamlashtirish jarayonlarining prognozlash sifatiga ta'siri ochib berilgan. Tadqiqot natijalari asosida to'g'ri soliqlar tushumlarini prognozlashda zamonaviy iqtisodiy-matematik modellarni qo'llash, axborot bazasini takomillashtirish hamda institutsional yondashuvni kuchaytirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq tushumlari, tahlila-tahlil, xavflar, samaradorlik, raqamli platforma, usullar va vositalar, ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, tahlil, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

Abstract. This study is devoted to the analysis of the current state of practice in Uzbekistan in improving the methodology for forecasting accurate taxes. The study studied the current mechanisms of forecasting processes for the main accurate taxes, such as profit tax, personal income tax, and property and land taxes. Based on statistical analysis, comparative assessment, and economic modeling methods, factors affecting the accuracy and stability of forecast indicators were assessed. The impact of macroeconomic indicators, tax base expansion, and tax administration digitization processes on the quality of forecasting was also revealed. Based on the results of the study, scientific and practical proposals and conclusions were developed aimed at using modern economic and mathematical models in forecasting accurate tax revenues, improving the information base, and strengthening the institutional approach.

Key words: tax revenues, analysis, risks, efficiency, digital platform, methods and tools, advanced information and communication technologies, analysis, optimization, tax incentives, tax rate.

Аннотация. Данное исследование посвящено анализу современного состояния практики в Узбекистане в области совершенствования методологии точного прогнозирования налогов. В исследовании изучены существующие механизмы прогнозирования основных точных налогов, таких как налог на прибыль, подоходный налог с физических лиц, а также имущественный и земельный налоги. На основе статистического анализа, сравнительной оценки и методов экономического моделирования оценены факторы, влияющие на точность и стабильность прогнозных показателей. Также выявлено влияние макроэкономических показателей, расширения налоговой базы и процессов цифровизации налогового администрирования на качество прогнозирования. На основе результатов исследования разработаны научно-практические предложения и выводы, направленные на использование современных экономико-математических моделей в прогнозировании точных налоговых поступлений, совершенствование информационной базы и укрепление институционального подхода.

Ключевые слова: налоговые поступления, анализ, риски, эффективность, цифровая платформа, методы и инструменты, передовые информационно-коммуникационные технологии, анализ, оптимизация, налоговые льготы, налоговая ставка.

KIRISH

O'zbekistonda davlat budjeti barqarorligini ta'minlash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini moliyalashtirishda to'g'ri soliqlar muhim manba hisoblanadi. Foyda solig'i, jismoniy shaxslar daromad solig'i, mol-mulk va yer soliqlari kabi to'g'ri soliqlar iqtisodiyotning real sektori holati, aholi daromadlari hamda



tadbirkorlik faolligi bilan bevosita bog'liq bo'lib, ularning prognoz ko'rsatkichlari davlat moliyaviy rejalashtirish tizimida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois ushbu soliqlar tushumlarini aniq va ishonchli prognozlash davlat budjeti ijrosining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda soliq tizimini isloh qilish, soliq yukini optimallashtirish hamda soliq ma'murchiligini soddalashtirishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonlar to'g'ri soliqlar bazasining kengayishi, soliq stavkalari va imtiyozlar tizimining o'zgarishi bilan birga prognozlash metodologiyasini ham qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Amaldagi prognozlash usullarining ayrim hollarda makroiqtisodiy o'zgarishlar, institutsional islohotlar va raqamlashtirish jarayonlarini yetarli darajada inobatga olmasligi prognoz aniqligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan to'g'ri soliqlarni prognozlash metodologiyasini takomillashtirish, zamonaviy iqtisodiy-matematik modellar, statistik va analitik yondashuvlarni amaliyotga joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi. Mazkur tadqiqot O'zbekistonda to'g'ri soliqlar tushumlarini prognozlash amaliyotini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy nuqtayi nazardan soliq va soliqdan tashqari tushumlarning o'sishi uchun qo'shimcha zaxiralarni topish va jalb qilish nafaqat mahalliy budjetlarni to'ldirish, balki zamonaviy huquqiy makonni shakllantirish, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, turli ijtimoiy yo'naltirilgan shahar dasturlari va ularni amalga oshirish masalasidir.

Rossiyalik iqtisodchilardan Vlasova (2015)ning fikriga ko'ra: "Mahalliy budjetlarning daromadli salohiyati davlat-xususiy sheriklikni yanada faolroq amalga oshirishni, soliq imtiyozlarini joriy etish va byurokratik jarayonlarni tezlashtirish hamda soddalashtirish orqali biznes yuritishni iloji boricha osonlashtirishni, noishlab chiqarish xarajatlari ulushini kamaytirishni va ishlab chiqarish xarajatlarini ko'paytirishni talab qiladi. Natijada mintaqadagi budjet siyosati samaradorligining oshishiga olib keladi. Mahalliy budjetlarning daromad salohiyatini oshirish bo'yicha kompleks qaror uzoq muddatli istiqbolda butun mintaqqa iqtisodiyoti uchun kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatadi".

Yana bir rossiyalik iqtisodchi, professor Suxarev (2020) barcha darajadagi budjet daromadlari manbalarini tubdan o'zgartirish, budjet mexanizmini rag'batlantirishga yo'naltirilgan xarajatlarni samarali faoliyat natijalarini joriy etish tizimini ilgari suradi. Jumladan, Brizgalin (2002) o'z tadqiqotlarida soliq tushumlari bilan soliq yuki o'rtasidagi bog'liqliklarni tadqiq qilib, uning soliq tushumlari prognoziga ta'sirini baholagan bo'lsa, Panskov va Kynyazevlar (2003) budjetni prognoz qilishda soliq tushumlarini prognozlashtirishning ahamiyatini ko'rsatib bergan.

Xudoyqulov (2019) o'z tadqiqotlarida ekonometrik usullar orqali davlat budjeti jami daromadlarining 2018–2023-yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlarini aniqlagan, PhD U. Pardaev davlat budjeti daromadlarini prognozlash masalalarini tadqiq etgan, i.f.d. Urmonov (2019) 2018–2020-yillarga mo'ljallangan yagona soliq to'lovining soliq tushumlari prognoz ko'rsatkichlarini aniqlagan.

Bizning fikrimizcha, budjet daromadlaridagi ulushning ortib borishi, soliq to'lovchilar sonining o'sishi, soliq imtiyozlari, soliq qarzlari va ortiqcha (oldindan) to'lovlar dinamikasidagi o'zgarishlarga olib keladi. Bundan tashqari davlat tomonidan soliqlar orqali tartibga solish raqobatbardoshlikka ta'sir qilish omillaridan biri bo'lsa-da, soliq tizimi korxonalarning raqobatbardoshligiga turli xil yo'llar bilan ta'sir qiladi. Soliq solish investitsiya va innovatsion jarayonlarga ta'sir qilish orqali korxonalarning raqobatbardoshligiga bilvosita ta'sir qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tahlil jarayonida ma'lumotlarni statistik guruhlash, qiyosiy va trendli tahlil usullaridan foydalanildi. Maqolada iqtisodchi olimlarning davlat moliya tizimining dolzarb masalalaridan biri sifatida mahalliy budjetlar barqarorligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy-nazariy qarashlari qiyosiy tahlil qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda mahalliy budjet daromad va xarajatlar tizimi mahalliy ehtiyojlarni qondirishni hamda hududlarning iqtisodiy rivojlanishi markazlashgan tartibda bajariladigan tadbirlarning amalga oshirilishi bilan bog'liq holda ijro etishga imkon bermoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Barcha biznes toifalari uchun soliq yukini kamaytirish va qulaylashtirish, shu asosda ishlab chiqarishni va soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish zarur"¹. Mahalliy budjetga yangi soliq solish manbalarini izlab topish, soliqqa tortishning zamonaviy texnologiyalar orqali tezkor tatbiq etish va mavjud hisoblangan soliqni undirish

1 Sh.M.Mirziyoyev. "Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy baxodir". - T: "O'zbekiston", 2018. - 123 bet.

mexanizmini takomillashtirish bo'yicha yetarli ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, lekin mahalliy soliqni undirish muammolarining haqiqiy holati hali to'liq tadqiq etilmagan. Shuning uchun mahalliy budjet soliq daromadlari faoliyatini hamda soliqqa tortish bazasini o'rganish va tahliliy masalalarni amalga oshirish mazkur mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

Davlat budjeti daromadlarining barqaror shakllanishida to'g'ri soliqlar muhim fiskal instrument hisoblanadi. O'zbekistonda foyda solig'i, jismoniy shaxslar daromad solig'i, mol-mulk va yer soliqlari davlat budjeti daromadlarining sezilarli qismini tashkil etib, ularning prognoz ko'rsatkichlari makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli to'g'ri soliqlar tushumlarini ilmiy asoslangan va aniq prognozlash metodologiyasini shakllantirish davlat moliyasini boshqarishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda soliq tizimini isloh qilish, soliq yukini optimallashtirish va soliq ma'murchiligini raqamlashtirish jarayonlari jadallashdi. Ushbu islohotlar to'g'ri soliqlar bazasining kengayishi va ularning iqtisodiy xulq-atvorga ta'sirini kuchaytirgan holda prognozlash metodologiyasini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, statistik tahlil, taqqoslama baholash, omilli va trend tahlili usullaridan foydalanildi. Shuningdek, to'g'ri soliqlar tushumlari va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda iqtisodiy-matematik modellash elementlari qo'llanildi. Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti ijrosi to'g'risidagi rasmiy statistik ma'lumotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda xalqaro tashkilotlar tavsiyalari tashkil etdi.

Amaldagi prognozlash amaliyoti asosan o'tgan davr ko'rsatkichlarini ekstrapolyatsiya qilish va makroiqtisodiy prognozlarga tayanadi. Ushbu yondashuvlar qisqa muddatli rejalashtirish uchun maqbul bo'lsa-da, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, institutsional islohotlar va soliq siyosatidagi yangiliklarni yetarli darajada aks ettira olmaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, foyda solig'i prognozlari real sektor rentabelligi va investitsiya faolligiga yuqori darajada bog'liq. Jismoniy shaxslar daromad solig'i tushumlari esa ish haqi fondi, bandlik darajasi va mehnat bozori dinamikasi bilan uzviy aloqada. Mol-mulk va yer soliqlari bo'yicha prognozlarning aniqligi asosan kadastr ma'lumotlarining sifati va baholash mexanizmlariga bog'liq bo'lib qolmoqda.

To'g'ri soliqlarni prognozlash jarayonini yanada takomillashtirish uchun bir qator metodik imkoniyatlar mavjud. Xususan, norasmiy iqtisodiyot ulushining mavjudligi prognoz modellarini yanada mukammallashtirish va yashirin iqtisodiy faoliyatni hisobga oluvchi baholash usullarini kengaytirishni talab etadi. Shuningdek, soliq va statistika ma'lumotlar bazalarini o'zaro integratsiyalash orqali prognozlash jarayonining analitik imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. Zamonaviy ekonometrik hamda stsenariyli prognozlash usullaridan foydalanishni kengaytirish prognoz ko'rsatkichlarining aniqligi va barqarorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tashqi iqtisodiy omillarni prognoz modellariga tizimli ravishda kiritish davlat budjeti daromadlarini oldindan baholash jarayonining ishonchligini mustahkamlash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari asosida to'g'ri soliqlarni prognozlash metodologiyasini rivojlantirishga qaratilgan bir qator ilmiy-amaliy yondashuvlar taklif etiladi. Jumladan, to'g'ri soliqlar bo'yicha ko'p omilli ekonometrik modellarni joriy etish prognozlashning ilmiy asoslanganligini oshiradi. Stsenariyli prognozlash mexanizmlarini (optimistik, bazaviy va pessimistik) ishlab chiqish turli makroiqtisodiy sharoitlarda budjet daromadlarini baholash imkoniyatini kengaytiradi. Raqamli soliq ma'murchiligi natijalarini prognozlash jarayoniga tizimli integratsiya qilish esa real vaqt rejimida shakllanayotgan ma'lumotlardan samarali foydalanish imkonini beradi. Bundan tashqari, hududiy va tarmoq kesimida differensial prognozlash yondashuvlarini rivojlantirish soliqqa tortish bazasining hududiy xususiyatlarini chuqurroq hisobga olishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, Big Data hamda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish prognozlash jarayonining analitik imkoniyatlarini kengaytirib, davlat budjeti daromadlari dinamikasini yanada aniq baholash imkonini yaratadi.

Davlat budjeti daromadlarini aniq va ilmiy asoslangan tarzda prognozlash davlat moliyaviy siyosatining samaradorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, uzoq muddatli makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, budjet intizomini mustahkamlash hamda xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan samarali hamkorlikni rivojlantirish sharoitida prognozlash mexanizmlarining shaffofligi va ishonchligi alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, davlat budjeti daromadlari prognozini ishlab chiqish tartibi hamda hisoblash metodologiyasini takomillashtirishga qaratilgan institutsional yondashuvlar chuqur ilmiy tahlil asosida rivojlantirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Davlat budjeti daromadlari prognozini ishlab chiqishdan ko'zlangan asosiy maqsad moliyaviy barqarorlik va budjet jarayonlarida shaffoflikni ta'minlashdan iborat. Bunda budjet daromadlarini nafaqat yillik, balki choraklik kesimda aniq prognozlash davlat xarajatlarini oqilona rejalashtirish imkonini beradi. Shuningdek, davlat budjeti daromadlarining to'liq va o'z vaqtida yig'ilishini ta'minlash uchun mustahkam huquqiy va metodologik asoslarni shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi. Ushbu yondashuv davlat moliyaviy siyosatida barqarorlik va fiskal intizomni kuchaytirishga xizmat qiladi.



Amaldagi Budget kodeksi normalariga muvofiq, davlat budjeti daromadlari prognozi belgilangan muddatlarda ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining balanslashgan daromad va xarajatlarga ega bo'lishi hamda ularning taqchilligiga yo'l qo'yilmasligi qonunchilikda mustahkamlangan.

2026-yildan boshlab davlat budjeti daromadlarini prognozlashda hududlar va Bojxona qo'mitasi kesimida choraklik prognoz ko'rsatkichlarining joriy etilishi prognozlash tizimining institutsional jihatdan takomillashayotganidan dalolat beradi. Yirik soliq to'lovchilar, jumladan "Navoiy KMK" va "Olmaliq KMK" korxonalari tomonidan to'lanadigan daromadlarni alohida hisobga olish prognoz aniqligini oshirishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy muhitning o'zgaruvchanligini hisobga olgan holda vakolatli davlat organlariga prognoz ko'rsatkichlariga zarur hollarda aniqlashtirish kiritish huquqining berilishi muhim institutsional mexanizm hisoblanadi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda hududiy moliya organlarining ushbu vakolatlari budjet rejalashtirish jarayonida moslashuvchanlikni ta'minlaydi.

Mazkur mexanizm prognoz ko'rsatkichlarini real iqtisodiy jarayonlarga moslashtirish, ichki va tashqi xatarlarni inobatga olish imkonini beradi.

Davlat budjeti daromadlari prognozini hisoblash jarayonini raqamlashtirish zamonaviy davlat moliyasini boshqarishning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. 2027-yildan boshlab prognoz hisob-kitoblarini Iqtisodiyot va moliya vazirligining axborot tizimi orqali avtomatlashtirilgan shaklda amalga oshirish soliq va bojxona ma'lumotlarining yagona platformada integratsiyasini ta'minlaydi. Axborot tizimlarining o'zaro bog'lanishi prognozlarning aniqligi va shaffofligini oshirish bilan birga, davlat budjeti daromadlari prognozi va uning ijrosini onlayn vaqt rejimida monitoring qilish imkonini yaratadi. Bu esa davlat moliyaviy nazoratining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Mahalliy budjetning daromadlarini mustahkamlash borasida mahalliy hukumatning soliq undirish va soliq bazalarini kengaytirishga bo'lgan qiziqishlarini rag'batlantirishni takomillashtirish zarurdir.

Fikrlarimizni oddiy tarzda yuritadigan bo'lsak, hududlarning soliq siyosati va salohiyati avvalo tegishli pog'onali budjetga real ravishda yo'naltirish mumkin bo'lgan daromadlarning miqdori nazarda tutiladi.

Belgilangan huquqiy tomondan qaralganda soliq siyosati amaldagi budjetga undirilishi mumkin bo'lgan soliq va yig'implarning to'g'ri hisoblanishi va budjetga undirilishi darajasini ham bildiradi.

Umumiy ma'noda esa bu hududlarning rivojlanishining soliq va yig'implar undirilishining imkoniyatlari ko'rsatkichlarini va hududlarning soliqqa tortiladigan resurslarining jami hajmini ifodalaydi. Ko'p hollarda soliq siyosati va salohiyati amaldagi qonunchilikka muvofiq hududlarning soliq daromadlarining mahalliy budjetga tushiriladigan qismi sifatida ham talqin qilinishi mumkin.

Mahalliy budjetlarning muhim daromad manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan salmoqli miqdordagi yer uchastkalari yer solig'ini to'lashdan ozod etildi. Shu munosabat bilan soliq to'lovchilarning ayrim toifalari uchun imtiyozlarni saqlab qolishning maqsadga muvofiqligi, shuningdek mahalliy budjetlarning yo'qotilgan soliqli daromadlari uchun davlat budjetidan to'lov masalalarini ko'rib chiqish zarurdir. Jumladan:

solliqlarni undirish va boshqarish tizimi samaradorligini oshirish uchun zaxiralarni izlash, buning uchun yer to'lovlari hisobidan mahalliy budjetlar daromad manbalarini shakllantirishda aniqlangan muammoli masalalarning yetarli va samarali tahlillarini amalga oshirish;

mol-mulkdan foydalanishni tartibga solish usuli sifatida yer uchastkalarini ijaraga berish tartiblarini yoki ijaraga berilgan yer uchastkalarini inventarizatsiya qilish;

yer uchastkalari soliqqa tortish va hududiy hokimliklar o'rtasida undirish, hisob-kitob bazasini shakllantirish, yerlarni hisoblash va to'lashni nazorat qilish vakolatini o'z-o'zini boshqarish organlariga berish orqali munosabatlarni tartibga solish;

soliq to'lovlarini o'z vaqtida undirish va muammoli soliq munosabatlarini hal qilish.

Davlat budjeti daromadlarini prognozlash quyidagi tamoyillarga muvofiq amalga oshiriladi:

uzluksizlik tamoyili – prognoz baholashni takomillashtirish uchun prognozlash jarayonining doimiylikini (real vaziyatning mumkin bo'lgan o'zgarishlari munosabati bilan prognoz baholashni aniqlashtirish), shuningdek budjet daromadlarini prognozlash va daromadlarni boshqarish rejalarini tuzish;

ko'p variantli hisob-kitoblar tamoyili – turli prognoz variantlarini taqqoslash va optimal variantni tanlab olish;

to'liqlik tamoyili – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan barcha daromadlarni budjetda muhimligi va ahamiyatligiga rioya etilgan holda to'liq hajmda prognoz qilish;

birlik tamoyili – barcha ma'muriy-hududiy birliklar bo'yicha budjet daromadlarining prognoz ko'rsatkichlarini aniqlashda yagona yondashuvni qo'llash;

muvofiqlik tamoyili – davlat budjeti daromadlari prognoz ko'rsatkichlarini iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va yo'nalishlariga muvofiqlashtirish;

realizm tamoyili – daromadlar prognozi hisobining asosliqligi va foydalaniladigan axborotning ishonchligini ta'minlash;

ehtiyotkorlik tamoyili – hisob-kitoblar uchun zarur bo'lgan mulohazani shakllantirish jarayonida ma'lum darajada ehtiyotkorlikni nazarda tutadi, bu esa daromadlarni oshirib ko'rsatish va yo'qotishlarni to'g'ri baholash.

Davlat budjeti daromadlari prognozlari qoida tariqasida oylik (tezkor), choraklik, yillik va o'rta muddatli bo'ladi. Daromad turlari bo'yicha soliq turlari va soliqsiz to'lovlarning yirik guruhlarini kesimida prognozlashtiriladi.

Foyda solig'i bo'yicha budjet daromadlari prognozi quyidagi formula orqali hisoblashni taklif qilamiz:

$$F_{pt} = \sum_{i=1}^n T_{b(i-cur)} \cdot rTb_i \cdot eTr \pm Extrev_i \pm ChP_i + Extshadec_i$$

Bu yerda:

F_{pt} - foyda solig'i prognozi;

i, n - to'lovchilar guruhlarini;

$T_{b(i-cur)}$ - tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha joriy davrdagi soliq solish bazasi;

rTb_i - tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha hisoblangan o'sish koeffitsiyenti;

eTr - tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha effektiv soliq stavkasi;

$Extrev_i$ - soliq siyosatiga kiritilayotgan o'zgarishlar natijasida tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha ko'zda tutilayotgan qo'shimcha daromad yoki yo'qotishlar;

ChP_i - tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha kelgusi davrda tushishi yoki qaytarilishi ko'zda tutilayotgan qarzdorlik va ortiqcha to'lovlar;

$Extshadec_i$ - tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha yashirin iqtisodiyotni qisqartirish yuzasidan ko'zda tutilayotgan qo'shimcha daromad.

Bunda yirik soliq to'lovchilar bo'yicha kelgusi davr uchun iqtisodiy ko'rsatkichlari va moliyaviy oqimlari prognozi mavjud bo'lgan taqdirda ushbu to'lovchilar bo'yicha foyda solig'i prognozini hisoblashda mikro-simulyatsion usuldan foydalanilishi mumkin.

Taklifimiz: aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha budjet daromadlari prognozi quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$F_{tt} = \sum_{i=1}^n T_{b(i-cur)} \times rTb_i \times eTr \pm Extrev_i \pm ChP_i + Extshadec_i$$

F_{tt} - aylanmadan olinadigan soliq prognozi;

i, n - to'lovchilar guruhlarini;

$T_{b(i-cur)}$ - tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha joriy davrdagi soliq solish bazasi;

rTb_i - tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha hisoblangan o'sish koeffitsiyenti;

eTr - tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha effektiv soliq stavkasi;

$Extrev_i$ - soliq siyosatiga kiritilayotgan o'zgarishlar natijasida tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha ko'zda tutilayotgan qo'shimcha daromad yoki yo'qotishlar;

ChP_i - tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha kelgusi davrda tushishi yoki qaytarilishi ko'zda tutilayotgan qarzdorlik va ortiqcha to'lovlar;

$Extshadec_i$ - tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha yashirin iqtisodiyotni qisqartirish yuzasidan ko'zda tutilayotgan qo'shimcha daromad.

Taklifimiz: jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha budjet daromadlari prognozi quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$F_{pit} = \sum_{i=1}^n T_{b(i-cur)} \times rTb_i \times eTr \pm Extrev_i \pm ChP_i + Extshadec_i$$

F_{pit} - jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i prognozi;

i, n - to'lovchilar guruhlarini;

$T_{b(i-cur)}$ - tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha joriy davrdagi soliq solish bazasi;

rTb_i - tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha hisoblangan o'sish koeffitsiyenti;

eTr - tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha effektiv soliq stavkasi;

$Extrev_i$ - soliq siyosatiga kiritilayotgan o'zgarishlar natijasida tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha ko'zda tutilayotgan qo'shimcha daromad yoki yo'qotishlar;

ChP_i - tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha kelgusi davrda tushishi yoki qaytarilishi ko'zda tutilayotgan qarzdorlik va ortiqcha to'lovlar;

$Extshadec_i$ - tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha yashirin iqtisodiyotni qisqartirish yuzasidan ko'zda tutilayotgan qo'shimcha daromad.



Taklif: mol-mulk solig'i bo'yicha budjet daromadlari prognozi quyidagi formula orqali hisoblanadi.

a) yuridik shaxslar mol-mulk solig'i bo'yicha:

$$F_{propt} = \sum_{i=1}^n T_{b(i-cur)} \times rTb_i \times eTr \pm Extrev_i \pm ChP_i + Extshadec_i$$

Fpropt - yuridik shaxslar mol-mulk solig'i prognozi;

i, n - to'lovchilar guruhlari;

Tbi-cur - tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha joriy davrdagi soliq solish bazasi;

rTbi - tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha hisoblangan o'sish koeffitsiyenti;

eTr - tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha effektiv soliq stavkasi;

Extrevi - soliq siyosatiga kiritilayotgan o'zgarishlar natijasida tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha ko'zda tutilayotgan qo'shimcha daromad yoki yo'qotishlar;

ChPi - tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha kelgusi davrda tushishi yoki qaytarilishi ko'zda tutilayotgan qarzdorlik va ortiqcha to'lovlar;

Extshadeci - tegishli to'lovchilar guruhi bo'yicha yashirin iqtisodiyotni qisqartirish yuzasidan ko'zda tutilayotgan qo'shimcha daromad.

b) jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i bo'yicha:

$$F_{ppt} = \sum_{i=1}^n (Cv1_i \times tp + Cv2_i \times tp + Cv3_i \times tc) \pm Extrev_i \pm ChP_i + Extshadec_i$$

Fppt - jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i prognozi;

i, n - hududlar;

Cv1i - ko'p qavatli uylarning kelgusi yildagi kadastr qiymati;

Cv2i - yakka tartibdagi uylarning kelgusi yildagi kadastr qiymati;

Cv3i - noturar-joylarning kelgusi yildagi kadastr qiymati;

tp - jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i stavkasi;

tc - yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i stavkasi;

Extrevi - soliq siyosatiga kiritilayotgan o'zgarishlar natijasida tegishli hudud bo'yicha ko'zda tutilayotgan qo'shimcha daromad yoki yo'qotishlar;

ChPi - tegishli hudud bo'yicha kelgusi davrda tushishi yoki qaytarilishi ko'zda tutilayotgan qarzdorlik va ortiqcha to'lovlar;

Extshadeci - tegishli hudud bo'yicha yashirin iqtisodiyotni qisqartirish yuzasidan ko'zda tutilayotgan qo'shimcha daromad.

Bunda mol-mulk solig'i prognozini hisoblashda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tuman va shaharlar Kengashlari tomonidan soliq stavkalariga nisbatan kiritiladigan oshiruvchi va kamaytiruvchi koeffitsiyentlar inobatga olinmaydi.

Taklif: yer solig'i bo'yicha budjet daromadlari prognozi quyidagi formula orqali hisoblanadi.

a) yuridik shaxslar yer solig'i bo'yicha:

$$F_{lt} = \sum_{i=1}^n (Dsum_i \times ind) \pm Extrev_i \pm ChP_i + Extshadec_i$$

It - yuridik shaxslar yer solig'i prognozi;

i, n - hududlar;

Dsumi - yuridik shaxslar yer solig'ining joriy yilda hisoblangan summasi;

ind - yuridik shaxslarning yer solig'i stavkasi indeksatsiyasi;

Extrevi - soliq-bojxona siyosatiga kiritilayotgan o'zgarishlar natijasida tegishli hudud bo'yicha ko'zda tutilayotgan qo'shimcha daromad yoki yo'qotishlar;

ChPi - tegishli hudud bo'yicha kelgusi davrda tushishi yoki qaytarilishi ko'zda tutilayotgan qarzdorlik va ortiqcha to'lovlar;

Extshadeci - tegishli hudud bo'yicha yashirin iqtisodiyotni qisqartirish yuzasidan ko'zda tutilayotgan qo'shimcha daromad.

b) jismoniy shaxslar yer solig'i bo'yicha:

$$F_{plt} = \sum_{i=1}^n (Ap_i \times tp_i) \pm Extrev_i \pm ChP_i + Extshadec_i$$



Fplt - jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i prognozi;

i, n - hududlar;

Api - jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan yer maydoni;

tpi - hudud bo'yicha o'rtacha yer solig'i stavkasi;

Extrevi - soliq-bojxona siyosatiga kiritilayotgan o'zgarishlar natijasida tegishli hudud bo'yicha ko'zda tutilayotgan qo'shimcha daromad yoki yo'qotishlar;

ChPi - tegishli hudud bo'yicha kelgusi davrda tushishi yoki qaytarilishi ko'zda tutilayotgan qarzidorlik va ortiqcha to'lovlar;

Extshadeci - tegishli hudud bo'yicha yashirin iqtisodiyotni qisqartirish yuzasidan ko'zda tutilayotgan qo'shimcha daromad.

Bunda yer solig'i prognozini hisoblashda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar, tuman va shaharlar Kengashlari tomonidan soliq stavkalariga nisbatan kiritiladigan oshiruvchi va kamaytiruvchi koeffitsiyentlar inobatga olinmaydi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlardan soliqlarni undirish mexanizmida faqat hisobvara-q-fakturalar asosida va bank hisob raqamlari orqali amalga oshirilsa, bank hisob raqamlari mavjud bo'lmagan jismoniy shaxslar tomonidan esa naqd pul shaklida yoki plastik kartalar orqali mobil ilovalardan foydalangan holda to'lov qilish imkoniyatlari mavjud. Bu jarayonda aksariyat hollarda jismoniy shaxslardan undiriladigan soliq'larga e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Shuningdek, soliq to'lovchi jismoniy va yuridik shaxslarga soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish yuzasidan imkoniyatlarni berish orqali soliq to'lovchilar tomonidan soliq majburiyatlarini to'lov mexanizmlari orqali undirish imkoniyati bo'la turib, to'lovlarni vaqtida bajarishga sharoit yaratilmas ekan, soliq to'lovchilarda boqimanda kayfiyati saqlanib qolaveradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, davlat budjeti daromadlari prognozini ishlab chiqish va hisoblash metodologiyasini takomillashtirishga qaratilgan institutsional va raqamli islohotlar davlat moliyaviy siyosatida sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab bermoqda. Ushbu islohotlar budjet barqarorligini mustahkamlash, prognoz aniqligini oshirish va davlat moliyasini boshqarishda zamonaviy ilmiy yondashuvlarni joriy etishga xizmat qiladi. Ilmiy nuqtayi nazardan, mazkur tajriba to'g'ri soliqlar va umumiy budjet daromadlarini prognozlash metodologiyasini yanada rivojlantirish uchun mustahkam nazariy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Amalda:

(a) Davlat budjeti daromadlari prognozini choraklar va hududlar kesimida taqsimlash O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari bilan amalga oshiriladi;

(b) Davlat budjeti daromadlari prognozini hisoblash Iqtisodiyot va moliya vazirligining axborot tizimi orqali amalga oshiriladi hamda ushbu axborot tizimi Soliq qo'mitasi, Bojxona qo'mitasi va Hisob palatasining axborot tizimlariga integratsiya qilinadi.

Taklif etilayotgan tahrir:

(a) 2026-yil moliya yilidan boshlab Davlat budjeti daromadlari prognozini choraklar va hududlar kesimida taqsimlash O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari bilan amalga oshiriladi;

(b) 2027-yil moliya yilidan boshlab Davlat budjeti daromadlari prognozini hisoblash Iqtisodiyot va moliya vazirligining axborot tizimi orqali amalga oshiriladi hamda ushbu axborot tizimi Soliq qo'mitasi, Bojxona qo'mitasi va Hisob palatasining axborot tizimlariga integratsiya qilinadi.

Davlat budjeti daromadlari prognozini hisoblash jarayonlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirishda Soliq qo'mitasi, Bojxona qo'mitasi, Hisob palatasi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining axborot tizimlarini o'zaro bog'lash va integratsiya qilish muhim texnik bosqich hisoblanadi. Mazkur tizimlar hozirda turli texnologik platformalarda ishlayotganligi, ma'lumotlar formatlari va xavfsizlik protokollarining turlichaligi tufayli ularni yagona axborot muhitiga birlashtirish uchun qo'shimcha texnik, tashkiliy va huquqiy choralar zarur.

Jumladan:

mavjud axborot tizimlarining arxitekturasini va ma'lumotlar bazasini tahlil qilish, ularni yangilangan Soliq, Bojxona va Hisob palatasi ma'lumot tizimlariga muvofiqlashtirish;

ma'lumotlar almashinuvi protokollarini (API, web-service) yaratish va axborot xavfsizligi talablariga moslashtirish;

yangi avtomatlashtirilgan modullar ishini sinovdan o'tkazish va ularni ekspluatatsiyaga joriy etish;

integratsiya natijasida real vaqtda budjet daromadlari prognozi va ijrosi haqidagi ma'lumotlarni yangilab borish imkonini yaratish. Shuningdek, tizimni bosqichma-bosqich ishga tushirish, ma'lumotlarning aniqligi va muvofiqligini ta'minlash, axborot xavfsizligi bo'yicha xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish zarurati tufayli mazkur jarayonni 2026-yilda to'liq yakunlash imkonsiz bo'lmoqda. Shu sababli davlat axborot tizimlarini to'liq texnik integratsiya qilish va ishonchli ishlashini ta'minlash uchun 2027-yil moliya yilidan boshlab amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyot uyi, 2020. – 640 b.
2. Брызгалин А.В. (2002) «Налоговая оптимизация: принципы, методы, рекомендации». – М.: С.54.
3. Власова Ю.А., Абрамова А.И. (2015) Проблемы укрепления доходного потенциала региональных бюджетов в России на примере калужской области//Креативная экономика. Т. 9. № 10. С. 1255-1276.
4. Пансков В., Кынязов В. (2003) «Налоги и налогообложение». Учебник. -М.: МЦФЭР. С.61
5. Пинская М.Р. (2004) Основы теории налогов и налогообложения / Под научн. ред.д.э.н., проф. В.С. Барда: Монография. – М.: Издательство «Палеотип»,. – 77-78 с.
6. Сухарев О.С. (2020) Инвестиции в транзакционный сектор и в финансовые активы: влияние на экономический рост. Финансы: теория и практика. 24(3):60–80. DOI:
7. Урмонов Ж. (2019) Иқтисодиёт фанлари доктори (ДсС) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. <http://diss.natlib.uz>. 2019 йил. Б. 27, 218-220, 225-230.
8. Худойкулов С.К. (2019) Солиқ тушумларини прогноз қилиш методологиясини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари доктори (ДсС) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси автореферати. Б. 14-16; 20-21; 28-29.,
9. Хўжакулов Рамшид Юнусовичнинг «Бюджет даромадларининг шакллантиришда тўғри солиқларнинг аҳамиятини ошириш» (ПхД) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати. – Тошкент, 2023.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100